

HOKIM VA YOSHLAR uchrashuvi davom etmoqda



HOKIM VA YOSHLAR uchrashuvi davom etmoqda

Termiz shahrida yoshlarning taklif va muammolarini o'rganish va ularni bartaraf etish maqsadida o'tkazib kelinayotgan navbatdagi "Hokim va yoshlar" uchrashuvi bugun 30-mart kuni "Manguzar" va "Chegara" mahallalarida bo'lib o'tdi.

Unda shahar hokimi, 1-sektor rahbari Isroil Xudoyberdiyevga 50 nafarga yaqin yoshlar murojaat qilib, taklif va muammolarini aytishdi. Uchrashuv davomida tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan 10 nafardan ortiq yoshlarning kredit olish masalasidagi murojaati ijobiy hal etildi. Shuningdek, o'zini-o'zi band qilish maqsadida murojaat qilgan yoshlarga tegishli tartib asosida amaliy yordam beriladigan bo'ldi.

O'rganish va vaqt talab qiladigan murojaatlar bo'yicha mahalladagi hokim yordamchisi va yoshlar yetakchilariga hamda tegishli tashbehit rahbarlariga qat'iy topshiriqlar berilib, ijrosi nazoratga olindi.









